



UDK: 902.6(575.151)

Odiljon XAMIDOV,
Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD
Email: odiljonkhamidov@tersu.uz

Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD G.Kattayeva taqrizi asosida

THE ROLE OF MATERIAL SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE BACTRIAN SATRAPY (BASED ON ARCHAEOLOGICAL EVIDENCE)

Annotation

Archaeological (material) sources play an important role in studying the history and culture of Turan during the period of Achaemenid rule. From the twentieth century to the present day, archaeological research conducted in Iran, Afghanistan, Uzbekistan, and Tajikistan has identified and studied numerous monuments and artifacts related to the history of this period. These sources provide important evidence for reconstructing the political, economic, and cultural life of Turan under Achaemenid rule, as well as its role within the empire. This article presents a scientific analysis of archaeological data concerning the location, research history, and types of archaeological monuments reflecting the history of the Bactrian satrapy discovered in the territories of Turan and Iran during the sixth–fourth centuries BC.

Keywords: Achaemenid Empire, Turan, Bactria, Bactrian Satrapy, archaeological monuments, urban and rural settlements, fortified houses, Persepolis, Pasargadae.

РОЛЬ МАТЕРИАЛЬНЫХ ИСТОЧНИКОВ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ БАКТРИЙСКОЙ САТРАПИИ(НА ПРИМЕРЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ)

Аннотация

Археологические (материальные) источники играют важную роль в изучении истории и культуры Турана в эпоху господства Ахеменидской державы. Начиная с XX века и до настоящего времени археологические исследования, проведённые в Иране, Афганистане, Узбекистане и Таджикистане, выявили и изучили многочисленные памятники и артефакты, относящиеся к истории данного периода. Эти источники предоставляют важные данные для реконструкции политической, экономической и культурной жизни Турана в период ахеменидского господства, а также для определения его роли в составе империи. В статье представлен научный анализ археологических данных о расположении, истории изучения и типах археологических памятников, отражающих историю Бактрийской сатрапии, обнаруженных на территории Турана и Ирана в VI–IV вв. до н. э.

Ключевые слова: Ахеменидская держава, Туран, Бактрия, Бактрийская сатрапия, археологические памятники, городские и сельские поселения, укрепленные дома, Персеполь, Пасаргады.

BOXTAR SATRAPLIGI TARIXINI O'RGANISHDA MODDIY MANBALARNING O'RNI (ARXEOLGIK YODGORLIKLAR MISOLIDA)

Annotatsiya

Arxeologik (moddiy) manbalar Turon tarixini va madaniyatini Ahamoniylar imperiyasiga qaramlik davrida o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. XX asrdan hozirgi davrgacha Eron, Afg'oniston, O'zbekiston va Tojikiston hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ushbu davr tarixiga oid ko'plab yodgorliklar va topilmalar aniqlanib, ilmiy jihatdan o'rganildi. Mazkur manbalar Turonning Ahamoniylar hukmronligi davridagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini qayta tiklash, shuningdek uning imperiya tarkibidagi o'rnini aniqlashda muhim daliliy material bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada miloddan avvalgi VI–IV asrlarga oid bo'lib, Turon va Eron hududlarida aniqlangan Baqtriya satrapligi tarixini aks ettiruvchi arxeologik yodgorliklarning joylashuvi, o'rganilish tarixi hamda turlari bo'yicha arxeologik ma'lumotlar ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ahamoniylar davlati, Turon, Boxtar (Baqtriya), Boxtar satrapligi, arxeologik yodgorliklar, shahar va qishloq manzilgohlari, mustahkam uylar, Persepol, Pasargad.

Kirish. Turonning miloddan oldingi VI–IV asrlar moddiy manbalari turli toifalarga ajratiladi. Ular qatoriga Turon va Eron hududlaridagi arxeologiya yodgorliklari, shuningdek xazinalar, muhrlar, kulolchilik buyumlari, mehnat qurollari, zooarxeologiya va arxeobotanik manbalar, harbiy qurollar va boshqalar kiradi. Ushbu manbalar nafaqat moddiy madaniyat, balki jamiyatning iqtisodiy, harbiy, diniy va maishiy turmush tarzini ham o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Arxeologiya manbalarini o'rganishda ularni hududiy nuqtayi nazardan guruhlash samaralidir. Bu jihatdan Turon, Eron, Mesopotamiya, Misr va Anado'lida aniqlangan moddiy madaniyat namunalari muhim ahamiyatga ega. Bunda Turon hududidan tashqarida topilgan manbalar, ayniqsa, madaniy

ta'sir doirasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, turonliklar tarixi va o'rnini kengroq ma'noda ko'rsatish imkonini beradi.

Zero davlatchilik tarixi faqat milliy manbalar asosida yozilishi mumkin emas – u tashqi manbalarni ham qamrab olgan holda, mintaqaning ellararo siyosiy, madaniy va iqtisodiy munosabatlari doirasida tahlil etilsa, haqiqiy tarixiy manzara yuzaga chiqadi. Shu bois, Turonning ahamoniylarga qaramlik davridagi tarixi faqat milliy yodgorliklar bilan cheklanmay, balki butun Qadimgi Sharq doirasida qaralishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turonning Ahamoniylar saltanatiga qaramlik davri – miloddan oldingi 6 - 4 yuzyilliklar bo'yicha arxeologiya manbalari ilk bor 1904-yili

Janubiy Turkmanistonda R. Pampelli rahbarligidagi ishlar davomida aniqlangan.

1960-yillardan boshlab ushbu davrga oid arxeologiya tadqiqotlari keng qamrovda amalga oshirila boshlandi. Natijada miloddan oldingi 6-4-yuzilliklarga oid yuzlab yodgorliklar aniqlandi [11:8; 7]. Sovet-afg'on qo'shma guruhleri Shimoliy Afg'oniston hududida bir qator yodgorliklarni o'rganganlar. Shu bilan birga, Surxondaryo viloyatida ham o'zbek olimlari tomonidan mazkur bosqichga oid bir qator yodgorliklar (jumladan, shahar va qishloq manzilgohlari, uy-qo'rg'onlar) aniqlandi va fanga joriy etildi [1; 2; 4; 12; 6; 3; 13; 8; 14].

Janubiy Tojikistondagi arxeologiya qazishmalari Kofirnihon, Vaxsh va Qizilsuv vodiylaridagi bir qancha arxeologiya yodgorliklarida olib borildi [5]. Shuningdek, Fransiyaning xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi Shimoliy-G'arbiy Afg'onistonda ushbu yo'nalishda faol ishlaganlar.

Ushbu izlanishlar natijasida Boxtar tarixiy-madaniy viloyatining miloddan oldingi 6 - 4 yuzilliklar yodgorliklariga oid qazishma va qidiruv ishlari Turonda temir asri arxeologiyasi o'zakqarashini qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Arxeologiya manbalarining ko'payishi orqali moddiy madaniyat turlarini tasniflash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlar davomida quyidagi masalalarni o'rganishning ilmiy asoslari shakllandi:

O'troq manzilgohlar turlari va ularning evrilishi; qazishmalardagi qat-qatlik bosqichlarining aniqlanishi; qadimgi yerchizmachiligi (topography) va sug'orish tizimlari; mudofaa inshootlari va shaharsozlik tarhi; madaniy-hududiy ajratish masalalari; xo'jalik turlari va hunarmandchilikning rivojlanishi.

Xususan, 1970-yillari Surxondaryo viloyatida O'zbekiston San'atshunoslik instituti guruhi tomonidan Qiziltepa shahar manzilgohlari va uning atrofidagi kichik uy-qo'rg'onlar o'rganildi, natijada, so'z ketayotgan davr yurtimiz janubidagi shahar va qishloq turidagi manzilgohlarning tuzilishi va joylashuv prinsiplari ilmiy asosda belgilandi.

1986-yil holatiga ko'ra, Surxondaryo viloyati hududida miloddan oldingi birinchi mingyillikka oid 36 ta arxeologik yodgorlik aniqlangan bo'lib, shundan 28 tasi FA San'atshunoslik instituti guruhi, qolgan 8 tasi Arxeologiya instituti guruhleri tomonidan ochilgan. Ushbu yodgorliklar ichida bevosita ahamoniylar saltanatining Turondagi hukmronlik davriga (arxeologik davrlashtirish bo'yicha – Qiziltepa III yoyig'i) to'g'ri keladigan 30 ga yaqin yodgorlik bo'lib, ular asosan 8 ta o'troq dehqonchilik vohalari hududida joylashgan.

1987-yili arxeolog A.Sagdullayev tomonidan e'lon qilingan "Qadimgi Boxtar uy-qo'rg'onlari" tadqiqotida Mirshodi vodiysidagi yodgorliklar misolida Turonning ahamoniylarga qaramlik davri tarixiy-arxeologik manzarasi ilmiy tahlil etilgan. Muallif ta'kidlashicha, 1987-yilga kelib, Turon hududida miloddan oldingi 1-mingyillikning birinchi yarmiga oid 240 dan ziyod arxeologiya yodgorligi aniqlangan bo'lgan.

E.V. Rtveladzening so'nggi tadqiqotlarida Surxondaryo viloyatining o'zida ushbu davrga oid 30 dan ortiq katta va kichik yodgorliklar borligi, ularning yirik daryolar va kichik soylar vohalarida joylashganligi ta'kidlanadi [9:10].

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, miloddan oldingi 6 – 4-yuzilliklar arxeologiya yodgorliklarining umumiy soni Turonning o'zida 570 taga yetgan bo'lsa, unga yondosh Afg'onistonda 462 tani tashkil etadi. Bu holat miloddan oldingi

6–4-yuzilliklarga oid moddiy madaniyat belgilarining hududiy tarqalishi haqida muhim tasavvur beradi.

Shimoliy Boxtar (hozirgi Surxondaryo) hududida 50 dan ortiq katta va kichik manzilgohlar aniqlangan bo'lib, ular asosan yirik daryolar (Amudaryo, Surxondaryo) va ularning tog' etaklaridagi soylar atrofidagi shakllangan vohalar tizimida joylashganlar. Bu manzilgohlar markaziy shahar, uning atrofidagi qishloqlar, qo'rg'onlar va maxsus inshootlardan iborat majmua shaklda bo'lgan.

Sh.Shaydullayevning tahliliy tasnifiga ko'ra, miloddan oldingi 6-5-yuzilliklarga oid yodgorliklar quyidagi toifalarga ajratiladi:

Bir necha qismdan iborat, mustahkam mudofaa devorlariga ega shaharlar; arki a'loga ega manzilgohlar; arksiz manzilgohlar; qo'rg'onlar; qal'alar; maxsus (xo'jalik, harbiy yoki diniy) inshootlar.

Eron hududidagi bir qator arxeologiya yodgorliklarida ham Turon tarixi bo'yicha ko'plab ma'lumotlar olishimiz mumkin bo'lgan manbalardan bor. Ular asosan Pasargad, Persepo'l, Shush (Susa) shaharlarida aniqlangan.

Persepo'ldan 80 km shimoli-sharqda joylashgan Pasargad yodgorligi birinchi bor 20-yuzillik boshlarida E.Xersfeld tomonidan[17], keyinchalik A.Steyn va A.Somiy tomonidan o'rganilgan[14]. 1961-1963-yillari D.Stro'nak boshchiligida Eron arxeologiya instituti tomonidan keng ko'lamlar arxeologiya tadqiqotlari amalga oshirilgan[16]. Xususan, Kserksning "devlarga qarshi" mixxat yozuvi nusxasi ham aniqlangan.

Pasargadda Ikkinchi Kurush maqbarasi, shohlik saroylari va xazina inshootlari o'rganilgan. Xazinadan topilgan 1162 ta qimmatbaho buyum orasida lojuvard toshidan ishlangan sirg'alar juda katta ahamiyatga ega. Mazkur toshning asosiy manbai Boxtar ekani inobatga olinsa, topilmaning so'z ketayotgan davr Turon tog'-konchiligi, hunarmandchiligi, savdo-sotig'i masalalarini yoritishdagi ahamiyati oydinlashadi, deb o'ylaymiz.

Miloddan oldingi 546-530-yillarga to'g'ri keladigan Pasargad inshootlari[8], Ikkinchi Kurush maqbarasi singari namunalar ahamoniylar hukmronligining Turon quruvchiligiga ta'siri masalasini o'rganishda asaqatadi, deb o'ylamiz.

Hozirgi Sheroz shahridan 50 km shimolida joylashgan, miloddan oldingi 518-330-yillari Ahamoniylar saltanatining poytaxti bo'lgan Persepo'ldagi ilk arxeologiya ishlari 1931-1939-yillari E.Xersfeld va E.Shmidt boshchiligida Germaniya va AQSH olimlari tomonidan olib borilgan [18; 19; 20].

Shahar tarkibidagi eng yirik inshootlardan biri – Apadana (tantanalar saroyi) bo'lib, u 3600 m² maydonni egallagan va 72 ta, har biri 20 metrli ustunlar bilan bezatilgan. U 10 000 kishiga mo'ljallangan bo'lib, saltanat xalqlari shohga sovg'a va soliqlar olib kelgan marosimlar ayni shu yerda o'tkazilgan. Apadana devorlarida 33 xalq vakillarining shohga ehtirom bildirib, sovg'a taqdim etayotgan sahnalari tasvirlangan bo'lib, ular elshunoslik manba o'laroq juda katta ahamiyatga ega.

Yangi tadqiqotlar Persepo'lning Naqshi Rostam yodgorlik majmuasi bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatmoqda. U yerda joylashgan Birinchi Doryush va Ikkinchi Artakserks maqbaralari devorlarida 23 xalq vakillarining tasvirlari uchraydi. Ular Persepo'l devorlaridagi apadana devoriy tasvirlari bilan solishtirma asosda o'rganilmoqda.

Ahamoniylar saltanatining muhim boshqaruv markazlaridan yana biri Shushda 1973-1974-yillari fransuzlar tomonidan olib borilgan qazishmalar davomida Birinchi Doryush va Kserks davriga oid saroyning kirish qismida aniqlangan haykal tagkursida saltanat tarkibidagi 23 xalq vakillarining tasviri topilgan. Ushbu tasvirlar Persepo'ldagi

apadana devorlaridagi tasvirlar bilan qiyosiy o'rganish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Shush shahrida joylashgan Shaur saroyi ahamoniylar podshohi Ikkinchi Artakserks hukmronligi davriga oid saroy majmuasi hisoblanadi. Maydoni taxminan 3 gektarni tashkil etuvchi bu inshoot ahamoniylar davrining so'nggi me'moriy an'analari o'zida aks ettiradi. Shaur saroyi hududida olov ibodatxonasi – ayadana ham bo'lib, uning me'moriy uslubi Persepo'l va Drangiana satrapligida joylashgan Kuhi Xoja ibodatxonalari bilan qiyoslash mumkin. Ushbu majmuada aniqlangan Ikkinchi Artakserksga tegishli bitiklarda ahamoniylar birinchi bor Mitra va Anahita xudolari nomlarini tilga olganlar [21]. Bu holat ahamoniylar davridagi diniy qarashlar evolyutsiyasini kuzatish imkonini yaratadi [3].

Saroydagi 64 ustunli majmua devorlarida sharqiy satrapliklar, xususan araxo'siyaliklar ifodalanganlar [17]. Tadqiqotchilarning taxminicha, bu tasvirlar saltanat tarkibidagi 23 ta xalq vakillarining saroyga soliq va sovg'alar olib kelayotganlarini ifodalashi mumkin. Shu jihatdan, ushbu devoriy tasvirlar Ahamoniylar ma'muriy-ijtimoiy

munosabatlari hamda viloyatlar maqomini o'rganishda muhim elshunoslik manbai bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Turon hududining ahamoniylarga qaralik davri tarixini tadqiq etishda arxeologik (moddiy) manbalar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, miloddan avvalgi VI–IV asrlarga oid arxeologik yodgorliklar Boxtar satrapligining hududiy chegaralari, ma'muriy boshqaruvi, shaharsozlik an'analari hamda Ahamoniylar imperiyasi tarkibidagi o'rnini ilmiy jihatdan tiklashda muhim daliliy asos bo'lib xizmat qiladi. Turonning miloddan avvalgi VI–IV asrlar tarixining manbashunosligini mukammal shakllantirish uchun Turon, Eron, Afg'oniston tarixiy-madaniy viloyatlari kesimida o'rganilayotgan davr arxeologik yodgorliklari katalogini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur arxeologik ma'lumotlar Turon hududining ahamoniylar davlati bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy integratsiyasi jarayonlarini ko'rsatib berishi bilan birga, mintaqa tarixini kompleks tarzda o'rganishda ham muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А. Памятники раннего железного века в Пянджском районе // Прошлое Средней Азии. Душанбе, 1987. С. 38–44.
2. Аскарлов А.А., Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепа. – Т., 1979.
3. Кошеленко Г.А., Ганбов В.А. Ранняя сакаральная архитектура иранских народов // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Т. IV. Москва. 2015. С. 63–99.
4. Дьяконов М.М. Сложение классового общества в Северной Бактрии // Советская археология. 1954. –№19. –С. 121–140.
5. Запбаров Ш.Х., Ртвеладзе Э.В. Раскопки древнебактрийского поселения Талашкан-Тепе I // Бактрийские древности – Л.: Наука, 1976. –С. 19–23.
6. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА. – М.-Л., 1959. –№ 73.
7. Пугаченкова Г.А, Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия – Тохаристан. – Ташкент: Фан, 1990. – 220 с.
8. Дандамаев М.А. Персидская держава // Источниковедение истории Древнего Востока: Учебник для студ. истфаков вузов / Под ред. В.И.Кузищина. – М.: Высш. шк. 1984. С. 231–250.
9. Ртвеладзе Э.В. Александр Македонский в Трансоксиане: Походы, историческая география. – СПб.: Евразия, 2019.
10. Ртвеладзе Э.В. К характеристике памятников Сурхандарьинской области ахеменидского времени // Советская археология. 1975. –№2. С. 262–266.
11. Сагдуллаев А.С. Поселения раннежелезного века в бассейне Кашкадарьи // Советская археология. 1984. –№3. С. 154–161.
12. Шайдуллаев Ш.Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. – Т., 2000. –128 с.
13. Labrousse A., Bouchardat R. La fouille du palais du Chaour à Suse en 1970 et 1971 // Cahiers de la Délégation Archéologique Française en Iran. 1972. Т. 2.
14. Stein A. Archaeological Reconnaissances in Southern Persia // The Geographical Journal. Vol. 83. No. 2. 1934. P. 119–134.
15. Ali Sami. Pasargadae: The Oldest Imperial Capital of Iran. Shiraz, 1956.
16. Stronach D. Pasargadae. A Report on the Excavations Conducted by the British Institute of Persian Studies from 1961 to 1963. Oxford, 1978.
17. Herzfeld E. Pasargadae. Untersuchungen zur persischen Archäologie // Klio. Band 8. 1908. S. 1–68.
18. E.F. Schmidt. Persepolis I: Structures, Reliefs, Inscriptions. Chicago. 1953 (Oriental Institute Publications; Vol. 68).
19. Schmidt E.F. Persepolis II: Contents of the Treasury and Other Discoveries. Chicago. 1957 (Oriental Institute Publications; Vol. 69).
20. Schmidt E.F. Persepolis III: The Royal Tombs and Other Monuments. Chicago. 1970 (Oriental Institute Publications; Vol. 70).
21. Campos Méndez I. Anahita and Mithra in the Achaemenid Royal Inscriptions // Anahita: Ancient Persian Goddess and Zoroastrian Yazata. Edited by Payam Nabarz. London, 2013. P. 41–47.
22. Boyce M. A History of Zoroastrianism. Volume II: Under the Achaemenians. Leiden; Köln, 1982. P. 209–263.